

O'QUVCHILARNING TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASI VA UNI BAHOLASH XUSUSIDA

Parxiddinova Diyora Kamoliddin qizi

ToshDO 'TAU 3-kurs talabasi

parxiddinova.diyora@icloud.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini baholash usullari, baholash jarayoni, tinglab tushunishni baholashga qaratilgan tadqiqot hamda shu tadqiqot yuzasidan olingan xulosalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, baholash, indikator, distraktor, audio segmentlar, video segmentlar.

Ma'lumki, nutqiy faoliyatni yuzaga keltirish uchun inson ongida shu nutq uchun hozir bo'lgan o'zlashtirilgan leksikon, ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Biz ana shunday ma'lumotlarni, asosan, tinglash orqali o'r ganamiz. Demak, tinglab tushunish jarayoni inson hayoti uchun eng muhim va zaruriy ko'nikma hisoblanar ekan, ta'lim boshqichlarida o'quvchilarning ana shu ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi va uni baholash to'g'risida ma'lum usullar taqdim qilinishi kerak. Zero, ingliz olimi Dylan Viliam "baholash – o'qitish va ta'lim maqsadi o'rtasidagi ko'rik" deya ta'kidlagan.¹

2021-yildan boshlab, umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitish mazmuni tubdan o'zgardi. Avval ona tilini o'qitish lingvistik bilimlarni berish orqaligina amalga oshirilgan bo'lsa, bundan keyin lingvistik ko'nikmalar nutqiy ko'nikmalar bilan birgalikda, hamohang shakllantirila boshlandi. Xo'sh, nutqiy ko'nikmalardan biri bo'lgan tinglab tushunish ko'nikmasini o'quvchilarda qanday usullar orqali rivojlantirish mumkin?

O'quvchilarda multimedia vositalari yordamida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish ikki xil usulda amalga oshiriladi:²

1) **Audio segmentlar** (radio dasturlari, monolog, dialog va hokazolar). Bunda o'quvchilarga tasvirsiz audiolar qo'yib beriladi, o'quvchilar esa audioni faqatgina tinglaydilar.

2) **Video segmentlar** (hujjatli filmlar, dramatik yoki komedik materiallar, yangiliklar dasturlari, turli xil intervylular va hokazolar). Bunda esa o'quvchilar nafaqat tinglaydilar, balki ko'rib tinglaydilar, bu kabi video segmentlardan foydalanish

¹ Dylan Viliam. Assessment: The bridge between Teaching and Learning. National Council of Teachers of English. Volume 21 Number 2, December 2013. Page 15-20.

² Hulkaroy Zoirjon qizi Norqo'ziyeva. Tinglab tushunish ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy metodlari. Scientific journal impact factor N6, 2022. 75-76-betlar.

o‘quvchilarning tinglanayotgan materialni yaxshiroq tushunishiga katta yordam beradi.

Shuni ham e’tiborga olish kerakki, o‘qituvchining o‘zi o‘qib bergen matnni tushunish ham o‘quvchilar uchun tinglab tushunish mashqi hisoblanadi, chunki bunda o‘quvchilar matnni ko‘rmaydilar, faqatgina o‘qituvchi nutqini tinglaydilar.

O‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini tekshirish va uni baholash maqsadida umumta’lim maktabi o‘quvchilari orasida kichik tadqiqot o‘tkazildi.

TADQIQOT

O‘quvchilarga bolalar ensiklopediyasidan “Tipratikan” mavzusidagi matn o‘qib berildi.³ U yuzasidan 12 ta test savoli tuzib chiqildi. Ushbu test savollari quyidagi indikatorlar asosida tuzildi:

- a) *ochiq ifodalangan mazmunni tushuna oladi;*
- b) *nisbatan yashirin ifodalangan mazmunni tushuna oladi;*
- c) *bir necha gap mazmun orqali xulosa qila oladi;*
- d) *ma’lumotlarni taqqoslab tahlil qila oladi;*
- e) *mazmuniy blok asosida umumiyl xulosa chiqara oladi;*
- f) *matnning umumiyl mazmunini tushuna oladi;*
- g) *matn tarkibidagi ma’lumotlar orasidan isbot va dalillarni ajrata oladi.*

Umumiy testda to‘plash mumkin bo‘lgan ball – **17.5**. O‘quvchilarga matn o‘qib eshittirilganidan so‘ng 10 daqiqa testni yechish uchun vaqt berildi.

Aprobatsiya natijalariga ko‘ra, 12 ta test savolining 9 tasi **valid**, qolgan 3 tasi esa **novalid test** deb xulosa chiqarildi. Chunki 3 ta testga o‘quvchilarning 90% i dan ko‘pi to‘g‘ri javob berisha olgan (93.9%; 96.6%; 100%)

TEST HAQIDA MA’LUMOT						
T/r	Test	Baholash indikatori	Test turi	Qiyinlik darajasi	Ball	Ajratil gan vaqt
1.	Quyida berilgan hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang. “Tipratikanlar odamga tez o‘rganadi”. A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri	Audiomatnda ochiq ifodalangan mazmunni tushuna olish	Yopiq To‘g‘ri-noto‘g‘ri javobli test	1	1	1

Ushbu savolga 33 ta o‘quvchidan 32 tasi to‘g‘ri, 1 tasi esa noto‘g‘ri javob berishgan. Demak, test juda oson tuzilgan, distraktorlar esa yaxshi ishlamagan. Test savoli esa **novalid** deb hisoblandi. (96.6%)

³ Bolalar ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 504-505-betlar.

7.	Tipratikanlar nimalarni yemaydi? A) Hasharot lichinkalarini B) Qurbaqalarni C) Kaltakesaklarni D) Dala sichqonlarini	Ma'lumotlarni taqqoslab tahlil qila olish	Yopiq Muqobil javobli test	3	2	2
----	---	---	----------------------------	---	---	---

Ushbu testga 33 ta o'quvchidan 25 tasi to'g'ri, 8 tasi esa noto'g'ri javob bergan. Ushbu savolda esa distraktorlar yaxshi ishlagan, 8 nafar o'quvchi shu distraktorlarga chalg'ib noto'g'ri javobni belgilab qo'yishgan. Umumiy natijalarga ko'ra, test savoli – **valid.** (75%)

Har bir o'quvchining umumiy tinglab tushunish natijasi tekshirib chiqildi va quyidagi xulosalar olindi:

- **Eng yuqori ball – 17.5**
- **Eng past ball – 7**
- **O 'quvchilarning o'rtacha ballari – 13-14**

Aprobatsiya natijalariga ko'ra, o'quvchilar eng ko'p **qiyinlik darajasi 3, balli 2 bo'lgan** savollarga javob berishda qiynalgan.

Xulosaga ko'ra, ona tili darslarida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda turli xil audio va video segmentlardan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarning tinglab tushunish darajasini tekshirish uchun ham shu kabi audio va videolardan foydalanib, u yuzasidan turli topshiriqlar berish va javoblarni tahlil qilish kerak. O'quvchilar esa bergan javoblariga ko'ra baholanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, test topshiriqlari butunlay audioga asoslangan bo'lishi va turli xil qiyinlik darajalarida bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchilarning haqiqiy tinglab tushunganliklarini baholash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Bolalar ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 504-505-betlar.
2. Dylan Viliam. Assessment: The bridge between Teaching and Learning. National Council of Teachers of English. Volume 21 Number 2, December 2013. Page 15-20.
3. Hulkaroy Zoirjon qizi Norqo'ziyeva. Tinglab tushunish ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy metodlari. Scientific journal impact factor N6, 2022. 75-76-betlar.
4. K. Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari. Akademnashr. Toshkent, 2020.